

**FRANSUZ TILI ORFOGRAFIYASIGA UYG'ONISH DAVRI TILSHUNOS
OLIMLARI TOMONIDAN KIRITILGAN O'ZGARTIRISHLAR
TO'G'RISIDA**

Radjabov Ruslan Rajabmurodovich

Buxoro Davlat universiteti

Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XVI-XVIII asrlardagi tilshunos olimlarning fransuz tili orfografiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlari o'rganildi va ularga munosabat bildirildi. Shu bilan birga bu asrlarda orfografiyaga oid olimlar tomonidan qilingan juda ko'plab o'zgarishlar aniqlandi va jadvalga solinishi natijasida ular o'rtasidagi differensial hamda o'xshash jihatlari aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *orfografiya, orfoepiya, uyg'onish davri, kommunikativ vazifasi, etimologiya, nutq tovushlari, fonetika, tovush, tilshunoslik, diskurs, og'zaki nutq, fonetik hodisa, grafema, morfema, nutq organlari*

Imlo yoki orfografiyaga faqat so'zlarni yozish usuli emas, balki, so'zlashuv tilidagi so'zlarni transkripsiya qilish uchun standart sifatida ko'riladigan qoidalar va foydalanish to'plami sifatida qarash kerak. O'rta asrlarda, ya'ni XII-XIII asrlarda, yozuv mohiyatan og'zaki sivilizatsiyada ozmi-ko'pmi beqaror xotiraning o'ziga xos yordamchisi sifatida qaralar va uning asoslari mohiyatan fonologik bo'lib, kamchiliklar va ziddiyatlarga ega edi. Jahon tilshunosligidagi ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, asrlar davomida ko'plab grammatiklar, filologlar, fonetiklar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar va qolaversa o'qituvchilar tomonidan bir necha bor soddalashtirish, o'zgartirish, isloh qilish bo'yicha bir qancha urinishlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, ko'zda tutilgan natijaga erisha olmadi. Biz fransuz tilida 842 yilda lotin-roman ikki tilliligi sharoitida yozilgan "Strasburg qasamyodlari" ni imloning boshlanishi sifatida bilamiz.

Birinchilardan bo'lib, Jak Peletye du Mans "écrire comme on parle" ya'ni "gapirayotgandek yozish" kerak, deya ta'kidladi, undan keyin Luis Meigret etimologik imlo tarafdorlariga qarshi chiqib ularni "lotinlar" va aksincha, fonologik imloni himoya qiladiganlarni "Zamonaviylar" deb atadi. Chunki, o'rta asrlarda Fransiya bir biridan farq qiladigan ko'plab lahjalarni va dialektlarni o'z ichiga qamrab olgan edi. Shu bilan birga, lotin tili cherkov, olimlar, ulamolar va ta'lim tili bo'lsa-da, ammo, aholining katta qismi vulgar (xalq tili) til bulmish fransuz tilida so'zlashar edi¹. Paris-Sorbonne universiteti professori Mireille Huchon "Imlo so'zlarning kelib chiqishini aks ettirishi

¹ Mireille Huchon. Histoire de la langue française. Poche. 2002

kerak (ecclise, medicin, dipner) va u boshidan kechirgan fonetik buzilishlarni qayd eta olishi kerak", deb ta'kidlagan edi.

Kardinal Rishelye tashabbusi bilan 1635 yilda yaratilgan Fransiya akademiyasining vazifasi "tilimizga ma'lum qoidalarni berish va uni sof, ravon va san'at va fanlar bilan shug'ullanishga qodir qilish ustida ishlashdir²" deb yozilganligiga guvoh bulamiz. Shundan so'ng akademiya fransuz tili orfografiyasini «nazorat» qilib 9 marta imlo qoidalari tug'risidagi o'zgarishlarni nashr ettirdi. Akademiyada mashhur akademiklar : La Fontaine, Kornel, Rasin yoki Boileau va ko'plab olimlar ishtirok etdilar. Fransuzcha imlo 1650-1835 yillar oralig'ida tabiiy ravishda ancha o'zgardi. O'sha davrdagi o'zgarishlarni "*O'rtacha har o'n ikki yilda, bizning yozuvimizning muhim jihati o'zgarib borardi*" deya ta'kidlaydi Fransuz tilshunos va grammatik olimi Andre Chervel. Descartes (1637) asarlarida quyidagi jumla fikrimizga misol bo'la oladi: « Pour moy ie n'ay iamais presumé que mon esprit fust en rien plus parfait que ceux du commun : mesme i'ai souuent souhaité d'auoir la pensee aussy prompte, ou l'imagination aussy nette et distincte, ou la memoire aussy ample, ou aussy presente, que quelques autres.» Quyidagi birgina misol bilan biz fransuz tilining 4 asr oldingi imlosini bugungi kungi imlosidan naqadar farqlanishini ko'rsatadi.

Belgiyalik lingvist olim *Andre Goosse* "*Xalq hech qachon imloni tanlamagan. O'rta asrlarda so'zlarning imlosiga ko'chiruvchilar qaror qilishgan; 16-asrda printerlar; keyin, bu kuch Richelieu tomonidan Fransiya akademiyasiga topshirildi*". (*Belgiya grammatikasi*, 2006)

XVII asrning tarixchisi Fransua Eudes de Mezeray « *La compagnie (Académie) déclare qu'elle désire suiure (suivre) l'ancienne orthographe qui distingue les gents de lettres d'avec (avec) les jgnorants (ignorants) et les simples femmes.*» deb yozadi. Ta'kidlangan ushbu jumlada usha davrda *suivre* (ergashmoq) fe'li *suiivre* yoki *avec* (bilan) **avec**, **ignorants** (bilimsiz) **jgnorants** kabi so'zlar farqli yozilganiga guvoh bulamiz. Yuqorida ta'kidlaganimizdek akdemiya 9 marta ya'ni: 1694, 1718, 1740, 1762, 1798, 1835, 1878, 1932-35, va 1992.... yillarda imloga o'zgartirishlar kiritdi. Keling ushbu imlo o'zgarishlarini Fransuz Akademiyasida nashr etilgan imlo reformalarini ko'rib chiqaylik.

- Birinchi nashr - 1694 yilda amlga oshirildi. Lug'at ustida ishlash 1678 yildan boshlangan bo'lsada, uni faqatgina 1694 yilda tugallangan shaklda qirolga taqdim etishdi ushbu imloviy lug'at 18 000 so'zni o'z ichiga olgan edi.

- Ikkinchi nashr 1718 yida amalga oshirildi va bu nashrda juda ko'p imloviy o'zgarish yo'q edi³.

Masalan : *exploré* o'rniga *éploré* (yig'lash)

² Académie française, Article 24 des statuts.

³ Émile Faguet, *Simplification simple de l'orthographe*, 1905.

syrop o'rniga *sirop* (sirop)

(bu so'zning grekcha formasi *-syrop*; lotinchasi-*syropus*)

noircisseure o'rniga *noircissure* (qorayish)

Birinchi va ikkinchi nashrlarda so'zlarning asosan kelib chiqishi ya'ni etimologiyasi saqlangan edi. Masalan: Corps, Temps so'zlarini P bilan va Teste, Honneste so'zlarini S bilan yozilardi va ular lotincha Tempus, Corpus, Testa, Honestus so'zlaridan kelib chiqqanligini ko'rsatar edi. To'g'ri, ba'zi so'zlar ham borki, ularda o'zlarining kelib chiqishini ko'rsatadigan ma'lum xarakterli harflar saqlanib qolmagan, masalan, Devoir, Fevrier so'zlari kabi, ilgari Debvoir va Febvrier, lotincha Debere va Februarius o'rtasidagi munosabatni bildirish uchun yozilgan.

- Uchinchi nashri - 1740 yilda, lug'atning 5000 dan ortiq so'zlarning imlosini o'zgartirdi.

- To'rtinchi nashr 1762 yilda amalga oshirildi. Bu nashrda, asosan so'zlardagi qo'sh harflar olib tashlandi, yunoncha <y> va <th> harflari <i> va <t> bilan almashtirildi.

Qo'sh undoshlarning olib tashlanishi :

1762 yilgacha – <i>tt, ll, rr...</i> ,	1762 yildan keyin – <i>t,l,r...</i> ,
<i>agraffer</i>	<i>agrafer</i>
<i>argille</i>	<i>argile</i>
<i>éclorre</i>	<i>éclore</i>

Bu davrdagi imlo reformasida, foydasiz, yoki o'qilmaydigan B, D, H, S harflarini olib tashlandi. S harfi bo'g'inning cho'zilishini belgilagan so'zlarda uni (accent circonflexe) sirkomfleks urg'u bilan almashtirildi. Oldingi nashrda bo'lgani kabi "u" qo'sh "I" o'rnini egallamaydigan yoki etimologiya izini saqlab qolish uchun ishlatilmaydigan barcha holatlarda "Y" harfi o'rniga yana oddiy "I" harfi qo'yildi. Shunday qilib, Foi, Loi, Roi va boshqa so'zlar oddiy "I" bilan yoziladigan; Royaume, Moyen, Voyez va boshqalar esa qo'sh "I" o'rnini egallagan "Y" bilan; Physique, Synode va boshqalarda "Y" harfi bilan, bu faqat etimologiyani belgilash uchun xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki 3 va 4-nashrlarda (1740, 1762 yilda) birinchi nashr ruhida 8000 ga yaqin imlo o'zgartirildi. Ular ko'plab accents graves va accents aigus urg'ularni o'rnatgan edilar.

- Beshinchi nashr 1798 yilda, Akademiya lug'atining soddalashtirishni davom ettiradi va "inqilobiy" atamalarning lug'atini qo'shadi. Agar 1798 yilgi lug'atda alaiter, alègre bilan ham tan olingan bo'lsa, bu endi 1835 yilda bunday emas. To alaiterning o'zi ham allègre kabi saqlanib qolgan, asl imlosi esa alègre edi. Tilshunos Nina Katach bu davrdagi o'zgarishlarni nazarda tutib: «Il est impossible de parler ici de la seule

tradition, il s'agit d'un choix⁴» deya ta'kidlaydi. Albatta, bu nashrda juda kam imlo o'zgarishlar amalga oshirildi.

• Oltinchi nashr 1835 yilda chiqdi. Bu nashrdagi imloviy o'zgarishlar juda katta edi. U fransuz tiliga o'zining zamonaviy qiyofasini bergan desak yanglishmaymiz. Chunki, bu safardagi nashr imloni soddalashtirib tartibga soldi va uni talaffuzga moslashtirdi. Biroq, 1762 yildagi nashrda voz kechilgan yunoncha ph, rh, th murakkabroq etimologik shakllarga (rhythme, apthe) qisman qaytdilar. Eng katta o'zgarishlardan biri asrlar davomida talaffuz qilib kelinayotgan « oi » (ua) « ai » (e) « *françois-français* »ga o'zgartirildi aslida bu o'zgarishlar ancha oldinroq buyuk fransuz yozuvchisi Volterning 1751da nashr ettirgan «Le Siècle de Louis XIV» kitobida o'z aksini topgan edi. So'zlardagi koplik formasi *ent va ant* uchun *ens, ans* ga emas balki *ents, ants* kabi uzgartirildi. Bilamizki, tildagi istisnolarni qanchalik ko'p o'chirsak, tilni shunchalik soddalashtirgan va qanchalik soddalashtirsak, shunchalik to'g'ri yo'nalishda bo'lamiz ! Oltinchi nashr, 1798 yilgi beshinchi nashrga "inqilobdan beri qo'llanilgan yangi so'zlarni" o'z ichiga olgan qo'shimchani olib tashlash imkoniyatidir⁵. Ammo, XVIII asrda qisqartirilgan yunoncha harflar ushbu 6-nashrda qaytadan kiritilgan edi. Nina Katachning so'zlariga ko'ra, bu "xato bo'lib, standartni noto'g'ri tanlash va bu masalada standart prinsipining o'zi tufayli biz hali ham ikki baravar to'layapmiz" deb yozadi Nina Katach o'zining ilmiy o'rganishlarida.

Misollarni quyidagi jadvalda kurishimiz mumkin.

<i>les savans</i>	<i>les savants</i>
<i>anglois,</i>	<i>anglais</i>
<i>j'estois</i>	<i>j'aitais</i>

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Щекочихина М.А Проблемы орфографии в трудах французских учёных XVI XVII веков.
2. Meigret L. Traité touchant le commun usage de l'écriture française. Paris, 1542. 144 p
3. N.A.Kondrashov. Istoriya lingvisticeskix ucheniy.M., 1973.
4. Islomov, D. (2022). СТИЛИСТИКА ТУШУНШАСИ ТЎҒРИСИДА НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР ВА ТАЎЛИЛЛАР. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ

⁴ Nina Catach, *Histoire de l'orthographe française*, Paris, Honoré Champion, p. 304.

⁵ Jacques Chaurand, *Histoire de la langue française*, « Que sais-je », 1969, rééd. 1991, pp. 104-105.

(*buxdu.Uz*), 12(12).

извлечено

от

https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/6504

5. Islomov, D. "ЖИЗНЬ АБДУЛЛЫ КАДИРИ И ЕГО ВКЛАД В УЗБЕКСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)* 6.2 (2021).

6. Islomov, D. (2022). Француз тили фонетикаси Француз тили фонетикасининг ўзига хос жиҳатлари: Француз тили фонетикасининг ўзига хос жиҳатлари. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 8(8). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4108

7. Islomov, D. (2023). On phonetics, phonostylistics and phonetic means. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 28(28). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8800

8. Islomov, D. (2023). About Alliteration in French. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 28(28). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8798

9. Islomov, D. (2023). АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ “ЎТГАН КУНЛАР” АСАРИДАГИ ФНОСТИЛИСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ДИСКУРСИВ ТАҲЛИЛИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 28(28). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8801

10. Islomov, D. (2022). О понятии и искусстве аллитерации, придающей особый фонетический и фностилистический эффект узбекскому языку. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 16(16). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7057

11. Исломов Д. Ш. *ЎЗБЕК ТИЛИДА ИЖРО ЭТИШГА ХОС БЎЛГАН ФНОСТИЛИСТИК ВОСИТАЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ // " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS. – 2023. – Т. 9. – №. 1.*

12. Islomov D. SECTION: CULTURAL SCIENCE //MODERN SCIENTIFIC RESEARCH. – 2019. – С. 21

13. Islomov, D. "THE ROLE OF PHONOSTYLISTIC UNITS AND PHONEMES IN THE PROCESS OF TEACHING FRENCH TO ADULTS IN THE ANALYSIS OF EXAMPLES." Конференции. 2021.

14. ISLOMOV, D. Sh, and GA JAHONGIROVA. "THE ROLE OF PHONOSTYLISTICS AND PHONOSTYLISTIC UNITS IN TEACHING FRENCH AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS." E-Conference Globe. 2021.

15. Islomov, D. Sh. "Phonetics and Phonology." Middle European Scientific Bulletin 11.1 (2021).

16. Islomov, D. S. "THE ROLE OF SONORS IN ENHANCING PHONETIC RESONANCE AND MELODY IN UZBEK POETRY." International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding. Vol. 1. No. 1. 2022.
17. Исломов, Д. Ш. "Поэтические формы как культуроведческий компонент при обучении иностранному языку." Наука. Мысль: электронный периодический журнал 1 (2015): 23-29.
18. Islomov D. S. The Definition of The Concepts of «Phoneme» and «Phonostylistics» //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 9. – №. 4.
19. Ванцова Н. В., Исламов Д., Хусяинов Т. М. Возможности использования проектной методики при преподавании иностранных языков //Наука. Мысль: электронный периодический журнал. – 2016. – №. 10. – С. 31-34.
20. ДШ.Исламов - ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ КОНФЛИКТЫ И ИХ РАЗРЕШЕНИЕ - NovaInfo. Ru, 2016.
- 16.Rajabmurodovich, R. R. (2021). Linguo-cultural analysis of viticulture vocabulary in French and Uzbek languages. Pkogretim Online, 20(6).
- 17.RADJABOV, R. R., & TOSHPULATOVA, N. (2021, March). SCIENTIFIC AND THEORETICAL VIEWS ON VITICULTURE AND ITS ROLE IN THE WORLD COMMUNITY. In E-Conference Globe (pp. 23-27).
18. RADJABOV, R. R., & MAKHMUDOVA, S. (2021, March). THE ROLE OF ART OF TRANSLATION IN THE DEVELOPMENT OF WESTERN AND EASTERN LINGUISTICS. In E-Conference Globe (pp. 310-315).
19. Radjabov, R. R. (2021). THE FRENCH FUTURE: MODALITY IN ENGLISH. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(06), 60-67.
20. Radjabov, R. (2020). Moyens d'exprimer du sens futur dans les constructions hypothétiques. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 6(2).
21. Radjabov, R. (2021). FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA ,UZUMCHILIK' LEKSIKASINING LINGVOKULTROLOGIK TAHLILI VA OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8).
22. Radjabov, R. (2023). Орфография НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ОРФОГРАФИИ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА: теоретические взгляды ученых на орфографию. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 27(27).
- 23.Radjabov, R. (2023). ACCENTS ET MARQUES ORTHOGRAPHIQUES EN FRANÇAIS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 28(28).
- 24.Radjabov, R. (2023). A PROPOS DU CONCEPT D'ORTHOGRAPHE FRANÇAISE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 28(28).